

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA KASBIY DEFORMATSIYA MUAMMOSI VA PEDAGOGIK ERUDITSIYA HAMDA UNI OLDINI OLISHDAGI RO‘LI.

Andijon davlat pedagogika instituti  
“ Pedagogika va psixologiya “ kafedrası o`qituvchisi  
To‘lanova Mahliyo Murotali qizi  
“ Ijtimoiy va amaliy fanlar “ fakulteti talabasi  
Sayidazimova Marhabo Kazbek qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19457070>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida uchraydigan kasbiy deformatsiya muammosi, uning kelib chiqish sabablari hamda pedagogik faoliyatga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik eruditsiyaning o‘qituvchining kasbiy barqarorligini ta’minlash va deformatsiya jarayonlarining oldini olishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot davomida pedagogik, psixologik va metodik manbalar tahlil qilinib, boshlang‘ich ta’lim tizimida ishlovchi o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik eruditsiya o‘qituvchining refleksiv faoliyatini rivojlantirib, kasbiy deformatsiya xavfini kamaytiradi hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy deformatsiya, pedagogik eruditsiya, boshlang‘ich ta’lim, o‘qituvchi kompetensiyasi, pedagogik faoliyat, professional rivojlanish.

**Аннотация** В данной статье анализируется проблема профессиональной деформации у учителей начальных классов, её основные причины и влияние на педагогическую деятельность. Также научно обосновывается роль педагогической эрудиции в обеспечении профессиональной устойчивости учителя и предупреждении процессов профессиональной деформации. В ходе исследования были проанализированы педагогические, психологические и методические источники, а также определены компетенции, необходимые для профессионального развития учителей начального образования. Результаты исследования показывают, что развитая педагогическая эрудиция способствует формированию рефлексивной деятельности учителя, снижает риск профессиональной деформации и повышает эффективность образовательного процесса.

**Ключевые слова:** профессиональная деформация, педагогическая эрудиция, начальное образование, компетентность учителя, педагогическая деятельность, профессиональное развитие.

**Abstract.** This article analyzes the problem of professional deformation among primary school teachers, its main causes, and its impact on pedagogical activity. The role of pedagogical erudition in ensuring teachers’ professional stability and preventing professional deformation is also scientifically substantiated. During the research process, pedagogical, psychological, and methodological sources were analyzed, and the competencies necessary for the professional development of primary education teachers were identified. The results indicate that developed pedagogical erudition enhances teachers’ reflective activity, reduces the risk of professional deformation, and increases the effectiveness of the educational process.

**Keywords:** professional deformation, pedagogical erudition, primary education, teacher competence, pedagogical activity, professional development.

**Kirish.** Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari yosh avlodning intellektual va

ijtimoiy shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli ularning kasbiy faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biridir[1]. Pedagogik faoliyatning uzoq davom etishi, doimiy psixologik yuklama, takrorlanuvchi didaktik vazifalar va kasbiy stress natijasida o‘qituvchilarda *kasbiy deformatsiya* deb ataluvchi holat yuzaga kelishi mumkin. Bu jarayon o‘qituvchining shaxsiy sifatleri, pedagogik munosabatlari va kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kasbiy deformatsiyaning oldini olishda pedagogik eruditsiya muhim omil hisoblanadi. Eruditsiya keng bilim, pedagogik tafakkur va metodik kompetensiyalarni o‘z ichiga olgan holda o‘qituvchining professional barqarorligini ta’minlaydi[2].

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik faoliyatdagi kasbiy deformatsiya masalasi ko‘plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqotchilar kasbiy deformatsiyani shaxsning kasbiy faoliyat jarayonida shakllanadigan salbiy psixologik o‘zgarishlar sifatida ta’riflaydi. Ilmiy adabiyotlarda o‘qituvchilarda uchraydigan deformatsiyaning quyidagi ko‘rinishlari qayd etiladi: pedagogik stereotiplash, avtoritar munosabatlar kuchayishi, emotsional charchoq, kasbiy befarqlik, kommunikativ muammolar[3].

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda pedagogik eruditsiya o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Eruditsiya o‘qituvchining nafaqat bilim darajasini, balki uning pedagogik tafakkuri, refleksiya va innovatsion faoliyatga tayyorligini ham belgilaydi. Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish metodlari, nazariy model yaratish pedagogik kuzatuv kabi. Mazkur metodlar yordamida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy deformatsiya jarayonlari va pedagogik eruditsiyaning profilaktik ahamiyati o‘rganildi. Tahlillar natijasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy deformatsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omillar quyidagilar ekani aniqlandi: Pedagogik faoliyatning yuqori emotsional yuklamasi, Doimiy nazorat va baholash tizimi, Metodik faoliyatning takroriyliigi, Innovatsion pedagogik texnologiyalardan yetarli foydalanilmasligi, Kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi.

Shuningdek, pedagogik eruditsiyaning rivojlanganligi quyidagi ijobiy natijalarni ta’minlashi aniqlangan: pedagogik refleksiyaning rivojlanishi, kasbiy stressning kamayishi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali kommunikatsiya, pedagogik innovatsiyalarni qo‘llashga tayyorlik. Pedagogik eruditsiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga tanqidiy yondashish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va doimiy o‘zini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati murakkab psixologik jarayonlar bilan bog‘liq. Ularning kasbiy barqarorligini ta’minlash uchun pedagogik eruditsiyani rivojlantirish zarur. Eruditsiya o‘qituvchiga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: keng pedagogik bilimlar bazasini shakllantirish, ta’lim jarayonini ijodiy tashkil etish, o‘quvchilar bilan individual ishlash, kasbiy muammolarni samarali hal etish kabi. Shu sababli pedagogik eruditsiya kasbiy deformatsiyaning oldini olishda profilaktik va rivojlantiruvchi omil sifatida qaraladi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy deformatsiya pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muhim muammolardan biridir. Ushbu holat o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishi, pedagogik faoliyati va ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Pedagogik eruditsiya esa kasbiy deformatsiyaning oldini olishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchining bilim darajasi, pedagogik tafakkuri va reflektiv qobiliyatlari rivojlangan sari kasbiy barqarorlik ham ortadi. Slastenin V.A. Pedagogika [4] Shu bois pedagogik ta’lim tizimida quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash, pedagogik eruditsiyani rivojlantiruvchi trening va seminarlar tashkil etish, innovatsion

pedagogik texnologiyalarni joriy etish. Bu chora-tadbirlar boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish va o‘qituvchilarning kasbiy salomatligini saqlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Kuzmina N.V. Professionalizm lichnosti uchitelya. Moskva, 1990.
2. Mitina L.M. Psixologiya professionalnogo razvitiya uchitelya. Moskva, 2004.
3. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. Moskva, 2000.
4. Slastenin V.A. Pedagogika. Moskva, 2002.